

Abdulmo'minxon



Abdulmo'min ibn Abulfayzxon

(1738 yil – Buxoro – 1751 yil)

(1747-1751)

Ashtarkoniylardan bo'lgan Buxoro xoni. **Abulfayzxonning o'g'li**.

Abulfayzxonning yetti farzandi bor edi. U mast chog'ida ularni o'limga mahkum etadi. Hali go'dak bo'lgan Abdulmo'mingina taxt ostiga yashirinib, omon qoladi. Abulfayzxon o'limidan so'ng (1747), Abdulmo'minni **Muhammad Rahim** otaliq taxtga o'tqizadi va o'ziga kuyov qilib oladi. Buxoroda turgan eron shohi Nodirshohning ukasi Aliquixon boshchiligidagi qo'shin o'z yurtiga jo'natib yuborilgan. U taxtga o'tqizilgan bo'lsada amalda hokimyat butunlay mang'itlar qo'lida, ya'ni Muhammad Rahim qo'lida bo'lgan. Biroq oradan 4 yil o'tgach, Muhammad Rahim kuyovi Abdulmo'minni ham o'ldirtirib, taxtga Abulfayzxonning kichik o'g'li **Ubaydullaxon III** ni o'tqazadi (1751).

2023-11-02 16:47:44